

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

NORMURODOVA NIGORANING

Bolalar hayoti faoliyatida o'yinning roli

Mavzusidagi

REFERATI

Termiz – 2014

I.bob O‘yin faoliyatining ilmiy adabiyotlarda o‘rganilishi.
1.1. Elkonin “O‘yin psixologiyasi” asarida o‘yin faoliyatining etakchi faoliyat ekanligi.

1.2 O‘yinning bola rivojlanishiga ta’siri.

1.3 O‘yin turlari va ularni psixologik xususiyatlari.

II. bob Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik o‘rinishida o‘yinning ahamiyati.

2.1. “Minora quramiz “o‘yinini olib borish.

2.2 ” Kamalakrang pufaklar “oyini.

III. Xulosa va tavsiyalar

IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

V. Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmokda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar. Bolalarning o'yinlari orkali ularda ijtimoiy foydali, ya'ni yuksak insoniy xislatlarni tarbiyalash mumkin. Bundan tashkari, agarda biz bolalarning o'yini faoliyatlarini tashkaridan kuzatsak, o'yin jarayonida ularning barcha shaxsiy xislatlari (kimning nimaga kuprok kizikishi, kobiliyati, irodasi temperamenti) yakkol namoyon bulishini kuramiz. SHuning uchun bolalarning o'yin faoliyatlari ularni individual ravishda urganish uchun juda kulay vositadir. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda uzlari yolgiz uynaydilar. Predmetli va konstruktorli o'yinlar orkali bu yoshdagi bolalar uzlarining idrok, xotira, tassavur ,tafakkur xamda xarakat layokatlarini rivojlantiradilar. Syujetli rolli o'yinlarda bolalar asosan uzlari xar kuni kurayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti –xarakatlarini aks ettiradilar. O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bulgan ta'lim faoliyatiga tayyorlaydi. Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o'yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir O'yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo'lgan tahlim faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo etarli darajada nutqni egallagan bo'lishi, ma'lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo'lishi kerak bo'ladi. Bularga bola o'yin faoliyati orqali erishadi.

Ma'lumki, bolalarning asosiy vaqti o'yin bilan o'tadi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishining muhim vositasi, ularning asosiy

faoliyati bo'lib hisoblanadi. O'yin jarayonida bola shaxsi faoliyat sub'ekti sifatida shakllana boshlaydi. O'yin uzoq davrlardan beri mashhur olimlar, pedagog psixologlar, faylasuflar, sotsiologlar, etnograflar va madaniyat arboblari diqqatini o'ziga qaratib kelingan dolzarb mavzudagi muamolardan biridir .

Kurs ishining maqsadi . O'yin jarayonida bolaning psixik bilish jarayonlarini rivojlantirish , irodasi xissiyoti va qiziqishlari ta'sirchanligini oshirish bola shaxsini shakllantirish . Pedagogik nuqtai nazardan o'yin bolaning ahloqiy irodaviy xususiyatlarini shakllantirish bilan birga uni bilim olishga kattalar mehnatiga hurmat va atrof muhitda bo'layotgan voqiya xodisalarga nisbatan qiziqish uyg'otish .

Kurs ishi vazifalari .

- 1) Ilmiy adabiyotlar asosida nazariy qism boblarini tayyorlash.
- 2) O'yinlarni tanlash va tashkil etish.
- 3) Maktabgacha yoshidagi bolalarda o'yinning roli haqida xulosa tayyorlash.
- 4) Taqdimot tayyorlash.
- 5) Tavsiyalar ishlab chiqish.

Kurs ishining obekti. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Surxondaryo Viloyati Termiz SHahar Xalq ta'limi muaccasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'yicha bo'limiga qarashli 28- maktabgacha ta'lim muassasasi turli yosh guruhlarini olindi .

Kurs ishida foydalanilgan metodlar.

- 1) Kuzatish
- 2) Suhbat.
- 3) Turli xil o'yinlar tashkil etish.

Kurs ishining tuzilisi. Kirish, asosiy qism boblari, I-bob nazariy qism bo'lib, 3 paragrafdan iborat, II-bob amaliy qism ham 3 paragrafdan iborat, III-bob xulosa va tavsiyalar , foydalanilgan adabiyotlar ro'yxari, disk, ilovalardan iborat.

1.1. D.B.Elkning “O‘yin psixologiyasi” asarida o‘yining etakchi faoliyat ekanligi.

Bu asar VI bobdan iborat bo‘lib asarning V bobi maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin faoliyatiga qaratilgan . Maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy va etakchi faoliyatlaridan biri o‘yindir. Etakchi faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez – tez ko‘zga tashlanib turadigan xatti – harakatiga aytamiz.

Etakchi faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o‘rishida jiddiy o‘zgarishlar yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, mana shunday asosiy faoliyat jarayonida bolaning barcha psixik prosesslari anchagina o‘radi. O‘yin bola hayotida mana shunday asosiy faoliyatlardan biridir. O‘yin shu qadar universal, shu qadar ko‘p qirrali va qudratli faoliyatdirki, barcha yoshdagi bolalarni o‘yindan boshqa kamolga etkazishni tasavvur etish qiyin.

O‘yin fakat tashki muxitdagi narsa va xodisalarni bilish vositasi bulibgina kolmay balki, kudratli tarbiya vositasi xamdir. Ijodiy va syujetli o‘yinlarda maktabgacha yoshdagi bolalarni barcha psixologik xususiyatlari shakllanadi. Mana shu nukta nazardan o‘yin bogchadagi ta’lim-tarbiya ishlarini yulga kuyishda markaziy urinda turadi.

O‘yin jarayonida maktabgacha yoshdagi bolaning barcha psixik jarayonlari tarkib topishida imkon buladi. CHunki o‘yin faoliyati bolalarni diqqat va xotirasi, nutki, xayoli, xissiyoti, mexnatga oid malakalari va kobiliyatlarinamoyon buladi.

Rolli o‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyatidir. Rolli o‘yin mazkur yosh davridagi bolalarning eng muxim faoliyati bulib, ular bunday o‘yinda guyo katta yoshdagi odamlarning barcha vazifalari va ishlarini amalda bevosita bajaradilar. SHu boisdan o‘yin faoliyati uchun maxsus yaratiladigan sharoitlarda ijtimoiy muxit voelari, oilaviy turmush xodisalari, shaxslar aro munosabatlarini umumlashtirgan xolda aks ettirishga xarakat kiladilar.

Bolalar kattalarning turmush tarzi, xis-tyygusi, uzaro muomala va mulokatlarining xususiyatlarini, uziga va uzgalarga, atrof-muxitga munosabatlarini yakkol voelik tarzida ijro etish uchun turli o‘yinchoklardan, shuningdek, ularning

vazifasini utovchi narsalardan ham foydalanadilar. Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy va maishiy voqelikning barcha jabxalarini kamrab oladigan rol o'yin ularda birdaniga zmas, balki turmush tajribasining ortishi, tasavvur obrazlarining kengayishi natijasida vujudga keladi, moxiyati va mazmuni jixatidan oddiydan murakkabga karab takomillashib boradi.

Rolli o'yin faoliyatini vujudga keltiruvchi eng zarur omillardan biri - bolada *uz* xatti-xarakatlarini kattalar xatti-xarakati bilan solishtirish, undan nusxa olish, aynan unga uxshatish tuygusining mavjudligidir. Xuddi shu sababli kattalar va ularning xatti-xarakatlari bolaning xam tashki, xam ichki ibrat namunasi buladi va kattalarning xulk-atvori, yurish-turishining xam ob'ekti, xam sub'ekti xisoblanadi.

Bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'grisidagga xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'z-uzidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bo'lishi lozim:

- a) taassurotlar tarkib topishi;
- b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muhayyoligi;
- v) bolalarning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirshuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal kiluvchi rol o'ynaydi.

D.B.Elkonin o'z tadqiqotida rol o'yinning syujeti bilan bir qatorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi, Uning fikrichsa, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jixatani aniqroq aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil qiladi.

Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katga rol o'ynaydi. Bogcha yosh davrida harakatning usishida o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'zidayoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini ustirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab kunikmalarini sub'ekt aynan o'yin

paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligani ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq, ochishga yordam beradi, Tajribada yigilgan ma'lumotlarni taxlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi

a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi;

b)shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada oldinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

O'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, balki bolaning xulq-atvoriga ham ijobiy ta'sir qo'rsatadi. Bogcha yoshidagi bolalarda uz xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylekoning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldinroq va osonroq egallash mumkin, Ayniqsa, bu omil bogcha yoshi davrining xususiyati sifatida o'zining yorqin ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xo'lqini uzi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda ham qariyb baravarlashadi. Ba'zida ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari mumkin. YUqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangacha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. CHunki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan

jismlar mohiyatini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga utishida unga tayanch nuqtasi bulinji kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tovchi narsalarning aksariyatidan o'yinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalaniladi. O'yin faolliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'grisida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bogliq jihatini aks ettiradi. YUqorida aytilganidek, narsa bilan o'yin harakatlarining takomiillashuvi harakat shakli xususiyati, bosqichi kabilarni qisqartirmish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. O'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishidagi mantaqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xo'losaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. SHuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutlaqo ziddir, Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi.

Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi kurinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jhati namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali uz ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, balki bolada shaxs xususiyat va fazilatlarini shakllantirishda ham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuygularini qo'zgatuvchilar bilan uzviy bogliq holda namoyon bo'ladi.

1.2.O‘yinning bola rivojlanishiga ta’siri.

Tadqiqotchi A.V.YArmolenko yarim yoshlik go‘daklarda jozibali narsalarning o‘zaro qiyosiy tasnifini tadqiq qilgan. Muallif olgan ma’lumotlarga qaraganda go‘dak behisob jismlar orasida insonni (katta yoshli odamlarni) tobora aniqroq, ravshanroq ajrata boshlagan. SHu bilan birga harakatsiz ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga diqqatni to‘plash 26 sekunddan 37 sekundgacha harakat qilmayotgan odamga bolaning tikilishi, 34 sekunddan 38 sekundgacha, xarakatdagi ko‘ruv qo‘zg‘atuvchisiga qarashi 41 sekunddan 78 sekundgacha, harakatdagi insonga e’tibor berishi 49 sekunddan 88 sekundgacha ortgan.

Tajribada go‘dakning xarakatlanayotgan odamga diqqatini to‘plab turishi 4 marotaba ortgani aniqlangan.

Go‘dak jonsiz narsalarga qaraganda odamga diqqatini barqaror qaratishi uning kattalarga munosabati o‘zgarganidan emas balki ular bilan aloqaga kirishganda sust retseptor o‘rnini faolrog‘i egallaganidandir. Go‘dakda fazoviy tassavurning boyishida jummalarning idrok qilishidagi farqlashning takomillashuvi muhim vosita xisoblanadi. Hayot tajribasi ortib borishi mashqlar natijasida jismlarning alomatlari va belgilarni o‘quvi paydo bo‘ladi.

Olimaning fikricha 3- oydan 6 oylikkacha bolada katta yoshdagi odamlar bilan tanlab munosabatda bo‘lishi vujudga keladi. Uch oylik go‘dak begonalar orasidagi tuqqan onasini ajrata olsa, yarim yoshdan boshlab esa begonalar ichidagi qarindoshlarini ham farqlay boshlaydi. M.YU.Kistayakovskaya ma’lumotiga ko‘ra, 5-6 oylikda u muomala qilayotgan notanish shaxsga bir oz tikiladi, keyin yo kulimsiraydi yoki undan yuzini o‘giradi, xatto, qo‘rqib yig‘lab yuboradi. Bolada o‘zini parvarish qilayotgan yaqin kishilariga bog‘lanib qolishi sodir bo‘ladi. Ana shu sababli onasini yoki enagasini ko‘rsa qiyqirib qarshilaydi, unga talpinadi, qo‘l-oyog‘ini ixtiyorsiz tipirchilatadi. U yarim yoshga to‘lganda atrofdagi yaqin kishilari, qarindosh-urug‘lariga, xatto qo‘ni -qo‘shnilarga ham bog‘lanib (o‘rganib) ko‘nikib qoladi. Ta’minan 8-9 oyligidan kattalar bilan dastlabki o‘yin faoliyatini boshlaydi.

O'yin faoliyatidagi tabassum, jonlanish, shodlik, tuyg'ulari avval faqat kattalar ishtirokida namayon bo'ladi, vaqt o'tishi bilan uyinning o'zi bolaga quvonch bag'ishlaydi. Go'dak bir yoshga yaqinlashgan sari kattalarning xatti-xarakatlarini izchil kuzatishdan tashqari unda asta-sekin ularning ko'mak berish ishtiyoqi tug'iladi. Natijada bola individual faoliyat turidan hamkorlikdagi faoliyatga ham o'ta boshlaydi. Ma'lum, hamkorlikdagi faoliyat muloqot ko'lamini kengaytirishga yordam beradi.

Maktabgacha tarbiya davri shaxsning xaqiqiy tarkib topishi (voyaga etish) davri bo'lganligi uchun ham shunday muhim bir davrdir. Hayotning birinchi yili mobaynida bolaning tevarak -atrofdagi muhitga munosabati jiddiy ravishda o'zgaradi. Bola kattalar bilan aloqada bo'lishi natijasida uning o'rgatishga qarab o'z ixtiyorlarini qondiradigan narsa bilan mustaqil xarakat qila boshlaydi. Dastlab u kattalar bilan birgalikda, so'ngra ularning rahbarligida xarakat qiladi, undan keyin ovqat eyish bilan bog'liq bo'lgan xarakatlarni va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid ishlarni mustaqil bajara oladi. Hayotning 2 yilida kattalar bilan munosabatlarda o'zgarish ro'y beradi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola katta odamni o'z xulqi-atvori uchun o'rnak deb xisoblaydi. Bola 1-yoshdan 3- yoshgacha narsalar, bilan xarakatlar qilishni egallaydi o'yin bolaning xarakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishga yordam qiladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bola faoliyatining xilma-xil turlari o'yin, mehnat rejimini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat rivojlana boradi. 2 yoshdan boshlab bolalar o'ynaydigan bo'lishadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning (4 yoshdan boshlab) etakchi faoliyatlarga bo'lib o'ynaladigan, ijodiy o'yindir. O'yin jarayonida bola muayyan rolylarni bajarishni o'z zimmasiga olishadi hamda o'yin sharoitida odamlar faoliyati va munosabatini esga keltirishadi. 3-4 yashar bolalarda birgalikda o'ynaladigan o'yinlar xali bo'lmaydi. Dastlab buyum, o'yinchoq rolyini go'yo esga solganday bo'ladi, sungra bola o'yinda ixtiyoriy suratda o'z zimmasiga ma'lum rolyni oladi. Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning kattalar tomonidan uyushtirilib, muayyan maqsadga qaratilgan ijodiy faoliyati uning taraqqiyotga qancha ta'sir ko'rsatadi. 2-yoshda bola rasm sola boshlaydi va jon dil bilan rasm soladi. Rasm solish jarayonida uning

idrok etishi aniqlashda u buyumning rangi va shaklini yaxshiroq ajrata boshlaydi, kuzatuvchanligi rivojlanadi. Bola tasavvurlayotgan narsani o'xshatish maqsadida rasmda aks ettirish zarur bo'lgan narsalarning belgilarini ataylab ajratib ko'rsatadi. Bola rasm solar ekan, rasmni so'zlar bilan to'ldirib, faollik bilan xarakat qiladi, u o'z tassavvurlari asosida keyinchalik katta yosh odamlarning so'ziga binoan rasmlar yaratmog'i mumkin-unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastiklardan shakllar yasaydi, natijada, bola analizatorlarining rivojlantirishda hamda moslashgan va differensiyallashgan xarakatning tarkib topiishidan tashqari uning narsa shaklini, xajmini, bir o'lchovda bo'lishi va munosabatligini idrok etish takomillasha boradi. 3-4 yashar bola narsalar o'rtasidagi bog'lanishni farqlab oladi va o'z faoliyatini planlashtiradi, bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o'yindir. Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyati masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini o'ziga jalb qilib kelmokda. Bog'cha yoshidagi bolalar o'zlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun hayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Bog'cha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa harakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi o'zining haddi sig'adigan narsalari bilangina emas, balki kattalarga mansub bo'lgan o'zining kuchi ham etmaydigan, xaddi sig'maydigan narsalar bilan ham amaliy munosobatda bo'lishga intiladi.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, fan-texnika mislsiz rivojlangan bizning xozirgi zamonamizdagi yaratilayotgan, xayratda qoldiradigan narsalar bolalarga go'yo bir mo'jizadek ko'rinadi. Natijada ular ham o'zlarining turli o'yinlari jarayonida o'xshatma qilib (yahni analogik tarzda) har xil hayoliy narsalarni uylab chiqaradilar (uchar ot, mashina odam, gapiradigan daraxt kabi). Bundan tashqari, bolalarning turli hayoliy narsalarni o'ylab chiqarishlari yana shuni bildiradiki, ular o'zlarining har turli o'yin faoliyatlarida faqat atroflaridagi bor narsalarni emas, balki ayni chog'da ehtiyojlari talab qilayotgan narsalarni ham aks ettiradilar.

Bolalarning o‘yin faoliyatlarida har xil hayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chiqarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning ham) tashqi muhitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol hamda ijodiy, yaratuvchan, o‘zgartiruvchan jarayondir.

Bolalar o‘yin faoliyatlarining yana bir ajoyib hususiyati shundan iboratki, o‘yin jarayonida bolaning qiladigan xatti-harakatlari va bajaradigan rollari ko‘pincha umumiylik harakteriga ega bo‘ladi. Bunda bola o‘zining turli-tuman o‘yinlarida faqat o‘ziga tanish bo‘lgan yolgiz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-harakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-harakatlarini aks ettiradi. Albatta, turmush tajribalari va faoliyatlari doirasi juda cheklangan kichik yoshdagi bolalar (bahzan kichik guruh bolalari ham) o‘zlarining o‘yinlarida konkret odamlarni va ularning harakatlarini aks ettiradilar. (Masalan, oyisini, adasini, akasini, tarbiyachisini va shu kabi). O‘rta, katta bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlarida esa bunday obrazlar umumiylik harakteriga ega bo‘la boshlaydi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarning o‘yinlari atrofdagi narsa va xodisalarni bilish quroli bo‘lishi bilan birga yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Boshqacharoq qilib aytganda, o‘yin qudratli tarbiya qurolidir. Bolalarning o‘yinlari orqali ularda ijtimoiy foydali, yahni yuksak insoniy hislatlarni tarbiyalash mumkin. Kichik maktabgacha yoshdagi bolalar odatda o‘zlari yolgiz o‘ynaydilar. Predmetli va konstruktorlik o‘yinlar orqali bu yoshdagi bolalar o‘zlarining idrok, xotira, tasavvur, tafakkur hamda harakat layoqatlarini rivojlantiradilar. Syujetli, rolli o‘yinlarda bolalar asosan o‘zlari har kuni ko‘rayotgan va kuzatayotgan kattalarning xatti – harakatlarini aks ettiradilar. 4-5 yoshli bolalarning o‘yini asta–sekinlik bilan jamoaviy harakterni ola boshlaydi.

Bolalarning individual hususiyatlarini, xususan ularning jamoaviy o‘yinlari orqali kuzatish qulaydir. Bu o‘yinlarda bolalar kattalarning faqat predmetlarga munosabatini emas, balki ko‘proq o‘zaro munosabatlarini aks ettiradilar.

SHuningdek, jamoaviy o'yinda bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar.

Katta bog'cha yoshida syujetli-rolli o'yinlar rivojlanadi, lekin endi bu o'yinlar o'z mazusining boyligi va xilma-xilligi bilan farqlanadi. Bu o'yinlar jarayonida bolalarda liderlik yuzaga kela boshlaydi, shuningdek tashqilotchilik ko'nikma va malakalari rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar shug'ullanadigan ijodiy faoliyatlar orasida tasviriy san'atning ham ahamiyati juda katta. Bolaning tasavvur etish xarakteriga qarab uning atrof hayotni qanday idrok etishi, xotira, tasavvur va tafakkur hususiyatlariga baho berish mumkin. Katta bog'cha yoshidagi bolalar chizgan rasmlar ularning ichki kechinmalari, ruhiy xolatlari, orzu, umid va ehtiyojlarini ham aks ettiradi. Bog'cha yoshdagi bolalar rasm chizishga ham nihoyatda qiziqadilar. Rasm chizish bolalar uchun o'yin faoliyatining o'ziga xos bir shakli bo'lib hisoblanadi. Bola avvalo ko'rayotgan narsalarini, keyinchalik esa o'zi biladigan, xotirasidagi va o'zi o'ylab topgan narsalarni chizadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musobaqa juda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan shunday o'yinlarda muvaffaqiyatga erishish shakllanadi va mustaxkamlanadi.

Katta Bog'cha yoshida konstruktorlik o'yinlari asta-sekinlik bilan mehnat faoliyatiga aylanib boradi. O'yinda bola elementar mehnat ko'nikma va malakalarini egallay boshlaydi, predmetlarning xossalari ang'lay boshlaydi, amaliy tafakkur rivojlana boradi.

Bog'cha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari xaqida gapirar ekanmiz, albatta ularning o'yinchoqlari masalasiga ham to'xtab o'tish kerak. Bolalarga o'yinchoqlarni berishda ularning yosh hususiyatlarini, taraqqiyot darajalarini va ayni paytda ularni ko'prok nimalar qiziqtirishini hisobga olish kerak.

Ma'lumki, 1-3 yosh bolalar hali tashqi muhitni juda oz o'zlashtirganlar. Ular hali hattoki narsalarning rangini, hajmini va boshqa jihatlarini yaxshi ajrata olmaydilar. SHuning uchun ularga ko'g'irchok bilan birga har xil rangli qiyqim, laxtak matolar ham berish kerak. Ayniksa, qiz bolalar o'z kug'irchoqlarini har xil

rangli matolarga o‘rab, ro‘mol qilib o‘ratib mashq qiladilar. O‘g‘il bolalarga esa, har xil rangli, bir-birining ichiga sig‘adigan quticha o‘yinchoklarni berish foydalidir.

O‘yin faoliyati bolalarni insoniyatning ijtimoiy tajribasini egallashning faol shakli bo‘lgan tahlil faoliyatiga tayyorlaydi. Odam birdaniga ijtimoiy tajribani o‘zlashtirishga kirisha olmaydi. Ijtimoiy tajribalarni faol egallash uchun odam avvalo etarli darajada nutqni egallagan bo‘lishi, ma’lum malakalar, uquvlar va elementar tushunchalarga ega bo‘lishi kerak bo‘ladi. Bularga bola o‘yin faoliyati orqali erishadi.

Bog‘cha yoshidagi bolalarda sezgi, idrok, diqqat, xotira, tasavvur, tafakkur, nutq, hayol, hissiyot va irodaning rivojlanishi jadal kechadi. Bola ranglarni xali bir-biridan yaxshi farq qila olmaydi. Unga ranglarning farqini bilishga yordam qiladigan o‘yinchoqlar berish lozim. Bu yoshdagi bolalar turli narsalarni idrok qilishda ko‘zga yaxshi tashlanib turuvchi belgilariga (rangi va shakliga) asoslansalar ham, lekin chuqur tahlil qilmaydilar.

Diqqat har kanday faoliyatimizning doimiy yo‘ldoshidir. SHuning uchun diqqatning inson hayotidagi ahamiyati ham benihoya kattadir. Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqati asosan ixtiyorsiz bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ixtiyoriy diqqatning o‘tib borishi uchun o‘yin juda katta ahamiyatga ega. O‘yin paytida bolalar diqqatlarini bir joyda to‘plab, o‘z tashabbuslari bilan ma’lum maqsadlarini ilgari suradilar.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va bolaning oldiga qo‘yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining faoliyatlari uchun kandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurotlar koldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor eslarida olib koladilar. Bog‘cha yoshidagi bolalar tafakkuri va uning o‘sishi o‘ziga xos xususiyatga ega.

Tafakkur bolaning Bog‘cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, bog‘cha yoshidagi bolalarda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi, ikkinchidan, bu davrda bolalar nutqining yaxshi o‘sgan bo‘lishi, uchinchidan esa, bog‘cha yoshidagi bolalarning juda ko‘p erkin mustaqil

harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlaridir. Bog'cha yoshidagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug'ilishi ular tafakkurining faollashayotganligidan darak beradi. Bola o'z savoliga javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasalar, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

,nima yomonligini.qanday harakat to'g'ri-yu, kanday harakat noto'g'riligini aniqlashga intiladilar. Bu ishdd bolalarga hamisha yordam berish kerak, ularning bunday Harakatlarini qo'llab - quvvatlash lozim.

Bolalar bog'chada asosan syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarni o'ynaydilar. Rollarga bo'linib O'ynaladigan o'yinlarda bolalar tevarak atrof-muhitdagi narsalarni aks ettiradilar. Ular o'zlarining turli o'yinlarida kattalarning oilaviy hayot sharoitlariga doir Hodisalarni, mehnat faoliyatlarini, yirik tarixiy Hodisalarini, kishilar orasidagi muloqot munosabatlari, URF - odatlar, bayramlarni aks ettiradi.

Ko'pincha bolalar aks ettirayotgan tashqi muhit hodisalari ular o'yin faoliyatining syujetini tashkil etadi. Bolalar aks ettirayotgan muhit qanchalik keng va xilma -xil bo'lsa, bolalar o'yinining syujeti ham shunchalik keng va xilma - xil bo'ladi. Ana shuning uchun o'z - o'zidan ma'lumki, kichik bog'cha yoshdagi bolalar o'yinlarining syujeti nihoyatda tor bo'ladi. Bolalar o'sib ulg'aygan sari ular o'yinining syujeti tobora boyib, xilma - xillashib boradi.

O'yin mazmuni sifati syujetlar xilma - xilligi bolalarning umumiy psixik taraqqiyot darajasiga bog'likdir.

Bolaningumumpsixolog taraqqiyoti faqato'yin jarayo-nidagi (A.Leontev) amalga oshishini inobatga olib ularning o'yinlarining mazmunan boyitishiga katta e'tibor qaratishi-miz lozim.

Bog'cha yoshidagi bolalarning **syujetli va rollarga** bo'linib, o'ynaladigan o'yinlari deyarli hamma vaqt jamoa holda amalga oshiriladi. Syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlar bolalarning ko'pgina psixik jarayonlari va shaxsiy psixologik sifatlarini rivojlan-tirishga yordam beradi. O'yin sharoitining o'ziyoq bolalar diqqatini atrofdagi narsa va hodisalarga faol yunaltiri shini talab qiladi. Bu esa, o'yin faoliyati davomida bola-larni nihoyatda faollashtiradi, ya'ni ular kuzatuvchan,

tez esda olib qoladigan, har bir narsani atroflicha va chuqur tahlil qiladigan bo'ladilar.

Syujetli va rollarga bo'linib, o'ynaladigan o'yinlar o'yin jarayonida bolalarning bir birlari bilan faol munosabatda bo'lishlariga imkon yaratadi. Bu bolalar nutqining tez rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki, syujetli va rollarga bo'linib o'ynaladigan o'yinlarning o'z qonun - qoidalari mavjud. Bu qonun - qoidalarga rioya qilishda bolalar o'z iroda kuchlarini ishga soladilar. Binobarin, o'yin faoliyati davomida bolalarning irodaviy sifatlari ham rivojlanadi. Turli yoshdagi bog'cha bolalarining o'yin faoliyatlari ularning barcha aks ettirish, ya'ni psixik jarayonlarini, aqliy imkoniyatlarini, shaxsiy psixologik sifatlarini, xarakter xislatlarini tarkib toptirib, rivojlantiradi. SHu narsa harakterliki, bog'cha yoshidagi bolalarning turli - tuman o'yin faoliyatlari sekin - astalik bilan ularni o'qish faoliyatiga tayyorlaydi.

Bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyati rus psixologlaridan L.S. Vigotskiy, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, E.A.Arkin, D.B. Elkonin va boshqalarning asarlarida ilmiy asosda yoritib berilgan. Rus psixologlari o'z asarlarida burjua psixologlarining o'yin nazariyalarini qattik tanqid ostiga olishlari bilan birga bolalar o'yin faoliyatlarining mohiyatini materialistik asosda ilmiy nuqtai nazardan tushuntirib berganlar. Bu jihatdan, xususan, S.K.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, E.A.Arkinlarning asoslari diqqatga sazovordir.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulgayib mustakil xarakat kilish imkoniyati oshgan sari uning atrofidagi narsalar va xodisalar dunyosi xam kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida uning faoliyat doirasidagi kuchi etadigan xaddi sigadigan narsalardan tashkari kattalarni faoliyatlari ya'ni ularni xol mutloko xaddilari sigmaydigan, jismoniy jixatdan kuchlari etmaydigan narsalar xam bor. Psixik tarakkiyotning mana shu boskichida bolalar uchun mavxum nazariy faoliyat, ya'ni nazariy yul bilan bilish faoliyatining bulishi mumkin emas.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning atrofidagi narsalarni bilish faoliyatining fakat bevosita xarakat kilish shaklida buladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni xaddan tashkari faol ekanliklarining sababi xam ana shundandir.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar bilan bevosita amaliy munosabatda bulishga intiladi. Bu urinda shu narsa xarakterliki bola bilishga tashnaligidan atrofdagi uzining xaddi sigadigan narsalar bilangina emas balki kattalar uchun mansub bulgan uzining kuchi xam etmaydigan narsalar bilan xam amaliy munosabatda bulishga intiladi. Buni natijasida bolalarda xaddan tashkari tez ortib borayotgan turli extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari urtasida keskin karama-karshilik yuzaga keladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tobora ortib borayotgan turli extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari urtasida karama-karshilik kanday yul bilan xal kilinadi?- Bu karma-karshilik fakat birgina faoliyat orkali, ya'ni bolaning o'yin faoliyati orkaligina xal kilinishi mumkin. Buni shu bilan izoxlab berish mumkin:

Birinchidan bolaning o'yin faoliyati kandaydir moddiy maxsulot ishlab chikarishga karatilgan faoliyat emas, chunki bolalarni o'yinga undovchi sabab o'yindan kelib chikadigan natija bilan emas balki shu o'yin jarayonidagi turli xarakatlarning mazmuni bilan boglikdir. Bolalarni o'yinga undovchi sabab (motiv) ham o'yindan kelib chiqadigan natijaga emas,(o'yindan ko'pincha xech qanday natija kelib ham chiqmaydi), balki shu o'yin prosessidagi turli xarakterlarga bog'liqdir.

Ikkinchidan esa bolalar o'yin jarayonida uz ixtiyorlaridagi narsalarni ularni kiziktirgan, ammo kattalargagina mansub bulgan narsalarga aylantirib (cho'pni ot qilib, stulchani avtomashina qilib) kuchlari etgancha erkin faoliyatda bo'laveradilar.

SHunday qilib, bolalar atroflaridagi kattalar uchungina mansub bo'lgan, xali o'zlarining kuchlari ham, aqlari ham etmaydigan juda ko'p narsalarni faqat o'yin faoliyati orqali o'zlashtiradilar. O'yin orqali ular voqelikdagi narsa va hodisalarni biladilar.

O'yinning bolalar psixik tarakkiyotidagi kudratli roli mashxur pedagog va psixologlardan tashkari mutafakkir yozuvchilarni xam diqqat e'tiborini jalb etgan. Masalan rus yozuvchilaridan biri M.Gor'bkii bolalar o'yin va uning moxiyati xakida shunday degan edi. **«O'yin bolalar uchun uzlari yashab turgan dunyoni bilish xamda uni uzgartirish qurolidir».**

O'yin bolalar xayotida shunday kup kirrali faoliyatki unda bolalarga mansub bulgan mexnat xam, narsalar xakida fikr yuritish xam, xayol kilish, dam olish va xushchakchaklik manbalari xam mujassamlashgan. Manna shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida namoyon buladi.

Bolaning ongida uni kurshab turgan voelik tugrisidagi xilma-xil o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadmik kilgan N.M.Aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin uz-uzidan vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit bulishi lozim:

- a) taassurotlar tarkib topishi;
- b) xar xil kurinishdagi o'yinchoklar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi;
- v) bolalarning kattalar bilan tez tez muomala va mulokotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir kursatish uslubi xal kiluvchi rol o'ynaydi.

D.B.Elkonin uz tadmikotida rolli o'yinning syujeti bilan bir katorda, uning mazmuni ham mavjud ekanini yozadi. Uning fikricha, o'yinda bola kattalar faoliyatining asosiy jixatini anikrok aks ettirishi o'yinning mazmunini tashkil kiladi.

A.P.Usovaning tadmikotlarida ta'kidlanishicha, rolli o'yin ishtirokchilarining safi yosh ulgayishiga karab, jinsiy tafovutlarga binoan kengayib boradi:

- a) uch yoshli bolalar 2-3 tadan guruxga birlashib, 3-5 dakika birga uynay oladilar;
- b) 4-5 yoshlilar guruxi 2-5 ishtirokchidan iborat bulib, ularning xamkorlikdagi faoliyati 40-50 dakika davom etadi, o'yin davomida katnashchilar soni ortib xam boradi;
- v) 6-7 yoshli bolalarda rolli o'yinni gurux yoki jamoa bulib birga uynash istagi vujudga keladi, natijada avval rollar taqsimlanadi, yyinning koidalari va shartlari tushuntiriladi (yyin davomida bolalar bir-6irlarining xarakatini katgik nazorat kiladilar).

Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha xammasining eng muxim jixatlarini shakllantirishda yyinlar katta rol o'ynaydi. Bogcha yosh davrida xarakatining usishida yyinning ta'siri xakida gap borganda avvalo shuni

aytish kerakki, birinchidan, yinni tashkil kilishning uzidayok mazkur yoshdagi bolaning xarakatini ustirish va takomillashtirish uchun eng kulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, yinning bola xarakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, xarakatning murakkab kunikmalarini sub'ekt aynan yin paytida emas, balki 6evosita mashgulot orkali uzlashtiradi. Uchinchidan, yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan yin faoliyati xatti-xarakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustakil maksaadra aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan yinlarda kynrok suzlarni eslab kolish va esga tushirish imkoniyatiga ega buladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini *idpok* ochishga yordam beradi. Tajribada yigilgan ma'lumotlarni taxlil kilish kuyidagicha xulosa chikarish imkonini beradi

a) yyinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab kolishni talab kiladi;

b) shu boisdan personajning nutk boyligini egallash, xatgi-xarakatini takrorlashdan iborat ongli maksad bolada oldinrok paydo buladi va oson amalga oshadi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev, D.B.El'konin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli o'yin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi. Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: 1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi; 2) bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettirolmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish); 3) bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda

o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi; 4) bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi; 5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi

o'yin faoliyatini takomillashtiradigan sharoitlarni tadqiq qilgan N.M.aksarinaning ta'kidlashicha, o'yin o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi, buning uchun kamida uchta sharoit mavjud bo'lishi kerak; a) bolaning ongida uni qurshab turgan voqelik to'g'risidagi xilma-xil taasurotlar tarkib topishi; b) har xil ko'rinishdagi o'yinchoqlar va tarbiyaviy ta'sir vositalarining muxayyoligi; v) bolaning kattalar bilan tez-tez muomala va muloqotga kirishuvi. Bunda kattalarning bolaga bevosita ta'sir ko'rsatish uslubi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

SHunday qilib, psixolog adabiyotlar tahliliga tayanib maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) bola odamlarning faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga qiziqadi;

2) bolalar rolli o'yinda atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin xis-tuyg'uli jihatlarini aks ettiradilar;

3) rolli o'yinda bola kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbqiq qiladi;

4) kattalar hayoti va faoliyatiga kirish bolaning tasavvuri timsollari tariqasida namoyon bo'lsa ham, umuman uning chinakam shaxsiy hayotida o'chmas iz qoldiradi.

Maktabgacha yosh davrida o'yinning takomillashuvi. Psixologiya qabul qilinganidek, rolli o'yin faoliyati syujet va mazmundan tashkil topadi. Odatda syujet deganda, o'yin faoliyatida bolalar aks ettiradigan voqelikning doirasi tushuniladi. o'yin syujeti turli davrga, sinfiy xususiyatga, oilaviy turmush tarziga, geografik va ishlab chiqarish sharoitlariga bog'liq holda yaratiladi. Bola munosabatga

kirishadigan voqelik doirasi qanchalik tor, cheklangan bo'lsa, o'yinnig syujeti shunchalik xira va bir xil ekanligini aks ettiradi.

o'ynlarning syujeti xilma-xilligiga qaramay, ularin maxsus guruhlarga birlashtirish imkoniyati mavjuddir. Masalan, yirik psixolog E.A.Arkin o'ynlarning quyidagi tasnifini tavsiya qiladi:

- 1) ishlab chiqarishga (texnikaga); sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, kasb-hunarga oid o'yinlar;
- 2) maishiy va ijtimoiy siyosatga ro'zg'or: bog'chaga, maktabga, kundalik turmushga oid o'yinlar;
- 3) harbiy : urush-urush o'yinlari;
- 4) drammatizatsiya: kino, spektakl va boshqalarga oid o'yinlar.

Biz shu tasnif haqida L.S.Vigotskiy, A.N.Leont'ev, D.B.Elkonin singari psixologlarning tanqidiy mulohazalariga to'la qo'shilamiz, chunki harbiy va drammatizatsiya o'ynlarni ham ijtimoiy-siyosiy guruhga kiritish mumkin. Bizningcha, D.B.Elkoninning tasnifi ma'quldir. U maktabgacha yoshdagi bolalarga xos rol o'ynlarning syujetiga ko'ra uchta guruhga ajratishni tavsiya qiladi:

- 1) maishiy mavzu syujetiga oid o'yinlar;
- 2) ishlab chiqarish syujetiga ma'luqli o'yinlar;
- 3) ijtimoiy-siyosiy syujetli o'yinlar.

Muallif ayrim o'yin turlari maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha bo'g'inlariga mosligini, syujetlar maishiydan ishlab chiqarishga qarab va undan ijtimoiy-siyosiy voqealarni aks ettirishga qarab rivojlanishini alohida uqtiradi. Uning fikricha, o'yin syujetidagi bunday izchillik bolaning bilim saviyasi, turmush tajribasi kengayishi, uning katta yoshdagi odamlar turmushiga chuqurroq kirib borishi bilan bog'liqdir. Darhaqiqat, o'yin syujetining o'sishi turmushning tobora yangi qirralarini aks ettirish bilan cheklanib qolmay, muayyan syujetning o'ziga xos boshqa ko'rinishlari bilan boyishi sababli ham amalga oshadi.

Katta yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati mutlaqo boshqacha o'tadi, chunki bir harakat ikkinchi harakat bilan uzluksiz bog'lanib ketadi, ba'zi bir harakatlarda esa

soʻz yordamida qisqartiriladi (“keling, xush koʻrdik” harakat bilan emas, balki soʻz orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi. Rolli oʻyin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtirokchilar oʻrtasidagi nizolar, tortishuvlarkamayadi, rolga oʻzini loyiq deb bilish oʻzidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-oʻqituvchi, qaychi-tikuvchi rolini olish uchun asos boʻla olmaydi), balki oʻyinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular kichik maktabgacha yoshdagilarga oʻxshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqaiga bir obrozdin ikkinchisiga oʻtishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

D.B.Elkonin harakatli oʻyinning qoidalari mazmuni oʻzaro bogʻliqligidin kelib chiqib ularni besh guruhga ajratadi:

- 1) harakatga taqlid qilish;
- 2) muayyan syujetni drammalashtirilgan oʻyinlar;
- 3) syujeti oddiy oʻyinlar;
- 4) syujetsiz qoidali oʻyinlar;
- 5) aniq maqsadga qaratilgan mashqlardan iborat sport oʻyinlari.

Bolani oʻyinga undamagan omil uning katta yoshdagi odamlarning borliq toʻgʻrisidagi va shaxslararo munosabati haqidagi tasavvuri va ularni oʻz shaxsiy faoliyatida sinab koʻrish istagidir, shuningdek, jamoa boʻlib oʻynayotgan tengqurlari bilan bevosita muloqotga kirishish ishtiyoqidir. Bolalar psixologiyasi fanida toʻplangan maʼlumotlar tahliliga asoslanib, mazkur yosh davri boʻyicha quyidagi xulosani chiqarish mumkin: 1) oʻyin faoliyatida bola turli harakatlarni toʻlaligicha namoyish etishga, ularni bajarish usullarini koʻrsatishga ishtiyoqmand boʻladi; 2) keyinchalik esa barcha xatti-harakatlarni umumlashtirib aks ettirishga urinadi.

Bola oʻsib borgan sayin narsalar va oʻyinchoqlarning nomini oʻzgartirish, yangi nom bilan atash engillashadi. SHuningdek faqat yangi vaziyatda jismlar nomini oʻzgartirish bilan kifoyalanib qolmay, ularni yangi nomga muvofiq qoʻllash imkoniyati ham vujudga keladi.

YUqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining o'rnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. SHunday ekan, o'yin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi o'yin mazmuniga ko'proq bog'liqdir. CHunki bolaning xatti-harkati qanchalik ihsam va umumlashgan bo'lsa, u kattalarning faoliyati mazmunini aks ettirishdan shunchalik yiroqlashadi. Binobarin, u odamlarning narsalarga va bir-biriga munosabatini amalda bajarishga o'tadi va shuning uchun narsalar bilan harakat qilishda kattalarning ijtimoiy munosabatlarini to'g'ri ifodalashga intiladi.

Har qanday o'yinning va o'yin faoliyatining markazida bola katta kishilarning faoliyati va o'zaro munosabatini, muomalasini o'ziga xos tarzda aks ettirishi, takrorlashi imkoniyati turadi. SHunga ko'ra o'yin ijtimoiy ahamiyat kasb etib, bola insoniyat tomonidan asrlar davomida yarailgan qimmatli bilimlar, amaliy ko'nikmalar, malakalar va odatlarni o'rganishga imkon yaratadi, oqibatda uni shaxslararo muloqotning mohiyatiga olib kiradi.

Eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha xammasining eng muxim jihatlarini shakllantirishda yoinlar katta rol yynaydi. Bogcha yosh davrida xarakatining usishida yoinning ta'siri xakida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, yoinni tashkil kilishning uzidayok mazkur yoshdagi bolaning xarakatini ustirish va takomillashtirish uchun eng kulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, yoinning bola xarakatiga ta'sir etishini sababi va xususiyati shuki, xarakatning murakkab kunikmalarini sub'ekt aynan yoin paytida emas, balki 6evosita mashgulot orkali uzlashtiradi. Uchinchidan, yoinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng kulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. SHu boisdan yoin faoliyati xatti-xarakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faoliligini ta'minlovchi mustakil maksaadra aylanadi.

Bolalar laboratoriya sharoitiga nisbatan yoinlarda kynrok suzlarni eslab kolish va esga tushirish imkoniyatiga ega buladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini *idpok* ochishga yordam beradi. Tajribada yigilgan ma'lumotlarni taxlil kilish kuyidagicha xulosa chikarish imkonini beradi

a) yyinda bola tomonidan ma'lum rol tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab kolishni talab kiladi;

b) shu boisdan personajning nutk boyligini egallash, xatgi-xarakatini takrorlashdan iborat ongli maksad bolada oldinrok paydo buladi va oson amalga oshadi.

Yirik psixologlar A.Vallon, J.Piaje, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leont'ev, B.G.Anan'ev, D.B.El'konin va boshqalarning fikricha, go'daklik davrida bolaning predmetli faoliyati negizida rolli o'yin uchun eng zarur sharoitlar asta-sekin vujudga kela boshlaydi.

Mazkur olimlar va ularning shogirdlari to'plagan ma'lumotlarga asoslanib rolli o'yinni vujudga keltiruvchi muhim omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) go'daklik davridagi predmet bilan uni harakatlantirish orasidagi bog'liqlik o'z ahamiyatini yo'qota boradi, natijada predmet bilan harakat alohida hukm surish imkoniyati tug'iladi va bola ularni alohida umumlashgan tarzda aks ettira boshlaydi;

2) bola haqiqiy o'yinchoqlar o'rniga ularning asl mohiyatini to'la aks ettir olmaydigan yasama va beo'xshov nusxalaridan keng foydalanadi (fabrikada tayyorlangan qo'g'irchoq yoki avtomobil o'rniga uyda yasab berilgan shunday narsalar bilan qanoatlantirish);

3) bolaning o'z xatti-harakatlari kattalarning ishlaridan farqlanishiga intilishi, unda o'ziga xos shaxsiy harakat ko'nikmasining paydo bo'lishi;

4) bolada o'z xatti-harakatini kattalar faoliyati bilan qiyoslash, harakatlarining mohiyatini muvofiqlashtirish va aynan tuzilishi jihatidan bir-biriga yaqinlashtirish istagining tug'ilishi;

5) bola kattalarning hayoti va faoliyatida uchrab turadigan, odatdagi turmush muammolarini o'zida aks ettiruvchi, ma'naviy va maishiy ko'rinishga ega bo'lgan hayot jabhasini o'z xatti-harakatida izchil ravishda tiklashga (ularning rolini bajarishga) urinishadi

Katta yoshdagi bolalarda o'yin faoliyati mutlaqo boshqacha o'tadi, chunonchi bir harakat ikkinchi harakat bilan uzluksiz bog'lanib ketadi, ba'zi bir harakatlar esa

soʻz yordamida qisqartiriladi (“keling, xush koʻrdik” harakat bilan emas, balki soʻz orqali ifodalanadi) va umumlashtiriladi. Rolli oʻyin bolalarning hamkorlikdagi faoliyati mahsuli tariqasida vujudga keladi. Bu yoshda rol tanlashda ishtirokchilar oʻrtasidagi nizolar, tortishuvlarkamayadi, rolga oʻzini loyiq deb bilish oʻzidagi mavjud buyumlardan kelib chiqmaydi (masalan, qalam-oʻqituvchi, qaychi-tikuvchi rolini olish uchun asos boʻla olmaydi), balki oʻyinning mazmunidan, hamkorlikdagi faoliyat nuqtai nazaridan kelib chiqadi. Natijada ular kichik maktabgacha yoshdagilarga oʻxshab rolni almashtirish, bir buyumdan boshqaiga bir obrozdand ikkinchisiga oʻtishdek beqaror harakatlar qilmaydilar.

YUqoridagi mulohazalar asosida aytish mumkinki, katta kishilar hayoti va faoliyatining oʻrnini bosuvchi ashyolar ularning harakatini umumlashgan holda ifodalashning moddiy tayanchi hisoblanadi. SHunday ekan, oʻyin faoliyatida bola harakatining rivojlanishi oʻyin mazmuniga koʻproq bogʻliqdir.

1.3.Oʻyin turlari va ularni psixologik xususiyatlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni oʻyini xilma-xildir. Ularni oʻyin turlarini asosan quyidagi klassifikatsiya qilish mumkin.

- 1) syujetli va rollarga bulib uynaladigan oʻyinlar;
- 2) Dilaktik oʻyinlar;
- 3) Xarakatli yoki koidali oʻyinlar;
- 4) Aralashtirilgan oʻyinlar;
- 5) Kurish va yasash oʻyinlari.

Syujetli va rollarga bulib uynaladigan bogcha yoshi bolalarni eng asosiy oʻyin formasidir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kuprok «bogcha-bogcha», «poezd-poezd» kabi kizikarli bulgan oʻyinlar uynaydi. Lekin turli yoshdagi bolalarning oʻyinlari bir xil bulsa xam syujeti xar xil buladi. Masalan: kichik gurux bolalari «bogcha-bogcha» oʻyini uynar ekan ular peshinga ovkat pishiradilar, nonni kesadilar, idishni yuvadilar. Ammo kesilgan non kugirchoklarga berilmaydi, pishirilgan ovkat tarelkaga suzilmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga sensor tarbiya berishda didaktik o'yinlarni roli katta. Didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim muassasasida maxsus dastur asosida olib boriladigan mashgulotlarni muvaffaqiyatli utkazishga, katta gurux bolalarini maktabdagi ukish faoliyatiga tayyorlashga katta yordam beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari ichida xarakatli yoki koidali o'yinlar xam muximdir. Chunki xarakli o'yinlar bolalarni jismoniy jixatdan chiniktiradi, dadil, kurkmas, epchil bulishga undaydi.

Bolalarga tashabbuskorlik, jamoaizm, burch xislarini ustiradi. Bunga «Kim birinchi», «koptok», «ok kuyonchautiribdi», «etib ol» o'yinlari kiradi.

Xarakatli o'yinlar asosan sayr va jismoniy tarbiya mashgulotlarida utkaziladi. Drammalashtirilgan o'yinlarni xam bolalar sevib uynaydilar. Bu o'yinlar turli xil ertak va xikoyalar saxnaga kuyiladi, rollarni esa bevosita bolalarni uzlari ijro etadilar. Masalan: «Kizil shapkacha», «Tormok», «SHolgom» drammati o'yinlar bolalarni nutki xayol va kobiliyatlarini tarkib toptiradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yinlari orasida qurish-yasash o'yinlari hammaga ma'lum bir maksadga qaratilgan bo'ladi.

O'yin faoliyati bolalarni individual ravishda urganish imkonini beradi. Ayrim bolalar jamoa bulib uynashni yoktiradilar bu psixologik bolani umumiy tarakkiyotiga ta'sir etadi. SHuning uchun tarbiyachilar jamoa o'yinlarga tortishlari kerak.

Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik proseslari bilan birlikda individual (shaxsiy) xislatlari ham shakllanadi. Mana shu nuqtai nazardan o'yin maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya ishlari orasida eng asosiy, markaziy o'rinda turadi. Demak, maktabgacha ta'lim muassasadagi ta'lim – tarbiya ishlarini muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila bilishga bog'liqdir.

II.bob Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik o'sishida o'yinning ahamiyati.

Bola psixikasining taraqqiy etishda o'yinning roli beqiyosdir. Biz bolaning psixik taraqqiyotini o'yinsiz tasavvur qilishimiz qiyin. Chunki, o'yin orqali bola faqat jismoniy tomondan emas, balki psixologik tomondan ham rivojlanadi. O'yin orqali bola olamni, undagi narsa hodisalarni, ularga xos xususiyatlarni o'rganibgina qolmay, balki nutq so'zlashga, mustaqil fikrlashga xayol qilishga, ijod qilishga, muomala madaniyatiga o'rganadi.

Ko'pchilik psixologlar hamda pedagoglar o'yinning psixologik masalalari bilan bevosita shug'ullanib, o'yinlarning bolani psixik kamol toptirishdagi ahamiyatiga alohida to'xtalib o'tganlar. Ma'lumki, o'yin bola uchun voqelikni aks ettirishdir. Bu voqelik bolani qurshab turgan voqelikdan ancha qiziqarlidir. o'yinning qiziqarliligi uni anglab etishning osonligidadir. Kattalar hayotida faoliyat, xizmat, yumush qanday ahamiyatga ega bo'lsa, bola hayotida o'yin ham xuddi shunday ahamiyat kab etishi mumkin.

Jahon psixologiyasi fanida to'plangan boy ma'lumotlarga asoslanib, quyidagicha mulohaza yuritish mumkin. Masalan, eng sodda psixik jarayondan eng murakkab psixik jarayongacha hammasining eng muhim jihatlarini shakllantirishda o'yinlar katta rol o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda avvalo shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shuki, harakatning murakkab ko'nikmalarini sub'ekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mutaql maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) sub'ekt (jonot) ongining dastlabki ob'ekti darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega

bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. SHunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni, takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi (A.V.Zaporojets).

Bolaning o'yinlar shart-sharoitidan kelib chiquvchi ongil maqsadi harakatlarni bajarish kezida o'z ifodasini topadi va uning o'z oldiga qo'ygan maqsadi esda olib qolish va esga tushirish jarayonlariga aylanadi.

Bolaning laboratoriya sharoitiga nisbatan o'yinlarda ko'proq so'zlarni eslab qolish va esga tushirish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ixtiyoriy xotira xususiyatini chuqurroq ochishga yordam beradi. Tajribada yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish quyidagicha xulosa chiqarish imkonini beradi: a) o'yinda bola tomonidan ma'lum rolni tanlash va uni ijro etish jarayoni bir talay axborotlarni eslab qolishni talab qiladi; b) shu boisdan personajning nutq boyligini egallash, xatti-harakatini takrorlashdan iborat ongli maqsad bolada olinroq paydo bo'ladi va oson amalga oshadi.

o'yin faqat bilish jarayonlarini takomillashtirib qolmay, bolaning xulq-atvoriga ham jobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirishga bog'liq psixologik muammoni o'rgangan Z.V.Manuylenkning fikricha, biror maqsadga yo'naltirilgan mashg'ulotga nisbatan o'yinda xulq ko'nikmalarini oldindan vva osonroq egallashmumkin. Ayniqsa, bu omil maktabgacha yoshdagi bolalarda yosh davrining xususiyati sifatida o'zining ifodasini topadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o'z xulqini o'zi boshqarish ko'nikmasi o'yin faoliyatida ham, boshqa sharoitlarda qariyb baravarlashadi. Ba'zan ular ayrim vaziyatlarda, masalan, musobaqa paytida o'yindagiga qaraganda yuqoriroq ko'rsatkichga ham erishishlari ham mumkin. YUqoridagi mulohazalar asosida umuman aytganda, o'yin va o'yin faoliyati bolada o'z xulqini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolaning aqliy o'sishi to'g'risida fikr yuritilganda, oldingi bobda qayd qilinganidek, shuni aytish ham kerakki, narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash holatidan kelib chiqib, sub'ekt o'yin paytida faol harakat qilishga urinadi. CHuniki u moddiy narsalarga asoslangan harakat rejasidan tasavvur qilinayotgan, fikr yuritilayotgan jismlar mohitini aks ettiruvchi harakat rejasiga o'tadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga hayoliy ko'rinishiga o'tishida unga tayanch nuqtasi bo'lishi kerak, vaholanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini o'tuvchi narsalarning aksariyatidan o'yinga bevosita ob'ekt sifatida foydalaniladi. o'yin faoliyatida mazkur jismlar qandaydir alomatlarini aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar to'g'risida fikrlash uchun xizmat qiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi harakatning yaqqol narsa bilan bog'liq jihatini aks ettiradi. YUqorida aytilganidek, narsa bilan o'yin harakatlarining takomillashuvi harakat shakli, xususiyati bosqichi kabilarni qisqartirish va umumlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. o'yin harakatlarining qisqarishi va umumlashuvi ularning aqliy ko'rinishdagi mantiqan izchil, yig'iq shaklga o'tishning asosini tashkil qiladi.

Psixolog J.Piaje o'yinda jismlarga yangi nom berish omiliga jiddiy e'tibor bilan qarab, bu ish ramziy ma'noli tafakkur shakllanishining tayanchi, degan xulosaga keladi. Lekin bu xulosa vaziyatni aks ettirishning birdan-bir to'g'ri yo'li ekanligini bildirmaydi. SHuning uchun narsaning nomini o'zgartirish bilan bolada tafakkur va aql-zakovat o'sishini kutish ham mantiqqa mutloqa ziddir. Aslida narsalarni qayta nomlash emas, balki o'yin harakatlarining xususiyatini o'zgartirish bolaning aqliy o'sishiga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Darhaqiqat, o'yin faoliyatida bolalarda harakatning yangi ko'rinishi, ya'ni uning fikriy, aqliy jihatini namoyon bo'ladi va shuning uchun o'yin harakatlarini shakllantirish jarayonida bolada fikrlash faoliyatining dastlabki ko'rinishi vujudga keladi. Bolaning aqliy kamol topishida yoki uning umumiy kamolotida o'yinning muhim ahamiyat kasb etishi xuddi mana shu dalil orqali o'z ifodasini topadi.

Bola o'yin faoliyatida maktab ta'limiga tayyorlanib boradi, shu boisdan, unda aqliy harakatlarning yaqqol shakllari tarkib topa boshlaydi. Lekin o'yin faoliyatida

bolaning aqliy o'sishini chuqurroq izohlab berish hali etarli tajriba ma'lumotlari mavjud emas.

Rolli o'yin faqat alohida olingan psixik jarayon uchun ahamiyatli emas, bolada shaxsiy xususiyat va fazilatlarni shakllantirishda sham zarurdir. Binobarin, katta yoshdagi odamlar rolini tanlab, uni bajarish bolaning his-tuyg'usini qo'zg'atuvchilar bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. CHunki o'yin davomida bolada har xil xohish va istaklar tug'ila boradi, bular boshqa narsalarning tashqi alomatlari, o'ziga rom etishi sababli hamda bolaning ixtiyoridan tashqari, tengdoshlarining ta'siri ostida tug'iladi.

Ma'lumki bolaning yoshi ulg'ayib, mustaqil harakat qilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va hodisalar dunyosi ham kengayib boradi. Bolaning maktabgacha yoshdagi davrida, uning faoliyat doirasiga atrofidagi kuchi etadigan, qo'lidan keladigan narsalardan tashqari, kattalarning faoliyatlariga doir, yani ularning hali mutlaqo aqlari etmaydigan, jismoniy jihatdan kuchlari etmaydigan narsalar ham kiradi. CHunki ular turmush tajribalarining ozligi va binobarin, haddan tashqari qiziquvchanliklari tufayli atrofdagi hamma narsa va hodisalarni bilishga intilaveradilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mavxum nazariy faoliyatning, ya'ni nazariy yo'l bilan bilish faoliyatining bo'linishi mumkin emas. Bu yoshdagi bolalarning atrofdagi narsalarni bilish faoliyatlari faqat bevosita harakat shaklida bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning haddan tashqari faol (betinim, harakatchan) ekanliklarining sababi ham shundadir.

Maktabgacha yoshdagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevoisita amaliy munosabatda bo'lishga intiladi. Bu o'rinda shu narsa e'tiborliki, bola bilishga tashnalgidan atrofdagi o'zining kuchi, aqli etadigan narsalar bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bo'lgan, o'zini kuchi ham, aqli ham etmaydigan narsalar bilan ham amaliy munosabatda bo'lishga, ya'ni bilib olishga intilaveradi. Buning natijasida bolaning xaddan tashqari tez ortib borayotgan turlari ehtiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari o'rtasida keskin qarama – qarshilik yuz beradi. Masalan bola avtomashinani, tramvayni o'zi

xaydagisi, rostakam otga minib yurgisi, uchuvchi bo'lib samolyotda uchkisi, rostakam militsioner bo'lgisi keladi. Biroq, bola o'zidagi bunday ehtiyojlarni birortasini ham xaqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. CHunki bu yoshdagi bolada bunday kasblarga mansub bo'lgan murakkab ko'nikma va malaka yo'k, bo'lishi ham mumkin emas.

Rus pedagogi A.S. Makarenko "Bola o'yinda qanday bo'lsa, o'sib ulg'aygach ishda ham ko'pincha, ko'p jixatdan shunday bo'ladi" –deb to'g'ri aytgan edi. A.M. Gorkiy "O'yin bolalar yashayotgan va o'zgartirishi ish lozim bo'lgan dunyoni bilish yo'lidir"-deb bejiz aytmagan.

Haqiqatdan ham **o'yin** har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni har tomonlama bilib olishga qaratilgan faoliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolaning o'yin faoliyati mazmun jihatdan har kungi vaziyatga qarab o'zgarib turadi. O'yin doimo o'zgarib turganligi tufayli bola o'ynab charchamaydi, zerikmaydi. Bolaning atrof muhitga kishilarga, narsalarga va o'ziga bo'lgan turli munosabatlari mazmun hamda shakl jihatdan har doim o'zgarib turadigan o'yin jarayonida namoyon bo'ladi. Bolalarning turli ehtiyojlari, istak va qiziqishlari, qobiliyatlari hamda bir qancha shaxsiy fazilatlari o'yin jarayonida bevosita rivojlanadi.

O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanadi, o'zlashtiriladi. SHuning uchun psixologiya nuqtai nazardan oqilona ya'ni to'g'ri tashkil qilingan o'yin bola shaxsini har tomonlama o'stiradi va shuning bilan birga bolaning butun psixik jarayonlarida –sezish, idrok, diqqat, xotira, tafakkur, xayol va irodani ildam rivojlanishiga yordam beradi.

O'yin o'z mohiyati jihatidan katta kishilarning hatti –harakatlari va xulq-atvorlariga faol taqlid qilishdan iborat bo'lishi tufayli bolalarda ma'naviy sifatlarning mustahkamlanishi uchun va odob – axloq qoidalarini bilib olishlari uchun keng imkoniyatlar beradi. Maktabgacha yoshdagi bola o'yin jarayonida tabiblik yoki muallimlik rolini bajarayotgan bo'lsa, shu kasbga tegishli barcha

sifatlarni namoyon qilishga intiladi. Ular o'yinga juda berilib ketsalar, bajarayotgan rollariga xos sifatlar shunchalik samimiy, ijodiy tarzda namoyon bo'ladi. Bolalar uchun o'yin mazmunining hech bir chegarasi yo'q.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kattalar hayotini hamma tomonlarini o'z o'yinlarida aks ettira oladilar. O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishdan iboratdir. O'yin har bir yosh bosqichda bolaning tevarak atrofdagi dunyoni va kishilar o'rtasidagi munosabatlarni bilib olishni ifodalaydi. Bolaning moddiy dunyoga, kishilarga o'z-o'ziga munosabati o'zgarayotgan o'yinda namoyon bo'ladi. Bolalarning ehtiyojlari, istak, qiziqish (xavas) lari bevosita o'yinda ifodalanadi. O'yin bolalarning xayolparastligi tufaydi narsalar va kishilar dunyosini ular uchun ma'qul tomonga "o'zgartirish" imkoniyatini beradigan faoliyatdir.

Bolaning aqliy o'sishi haqida fikr yuritilganda, shuni ham aytib o'tish kerakki narsalarni yangi nom bilan atashda yoki yangicha nomlash xolatidan kelib chiqib, sub'ekt yin paytida faol qapakat kilishga urinadi. CHunki u moddiy narsalarga asoslangan xarakat rejasidan tasavvur qilinayotgan. fikr yuritilayotgan jismlar moxiyatini aks ettiruvchi xarakat rejasiga utadi. Bola jismlarning moddiy shaklidan birdaniga xayoliy kyrinishga utishida unga tayanch nuqtasi bulishi kerak, voxolanki shunday tayanch nuqtasi vazifasini utovchi narsalarning aksariyatidan yyinda bevosita, ob'ekt sifatida foydalaniladi. O'yin faoliyatida mazkur jismlar kandaydir alomatlarni aks ettiruvchi sifatida emas, balki ana shu tayanch narsalar tugrisida fikrlash uchun xizmat kiladi, shuningdek, tayanch nuqtasi xarakatning yakkol narsa bilan boglik jixatini aks ettiradi.YUkorida aytilganidek, narsa bilan yyin xarakatlarining takomillashuvi xarakat shakli xususiyati, boskich kabilarni qisqartirish va umumlashtirish xisobida amalra oshiriladi. O'yin xarakatlarining kisqarishi va umumlashuvi ularning akliy kurinishidagi mantikan izchil yigiq shaklga utishning asosini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar o'yin faoliyati bilan birga ta'limiy mashg'ulotlarda ham ishtirok etadilar. Maktabgacha tarbiya yoshi davridagi ta'limiy mashg'ulotning asosiy mazmuni bolani atrof hayotdagi narsa va

hodisalarning asosiy xususiyatlari bilan tanishtirish, ogʻzaki nutqni lugʻat boyligi, tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, grammatik tomondan toʻgʻri soʻzlashlikka oʻrgatish, bogʻlanishli nutqni shakllantirishdan iborat, elementar mavhum tushunchalarga ega boʻlish, jismoniy tarbiya, tasviriy sanʼat qirqib yopishtirish, rasm, loy yoki plastilindan turli buyumlar yasash, qurilishi materiallar bilan ishlash, muzika va boshqa mazmundagi mashgʻulotlar bolani aqliy jihatdan maktab taʼlimini egallashga tayyorlash imkonini beradi.

Keyinchalik bolaning hayotiga alohida faoliyat turi kirib keladi. Bu faoliyatni shunday turiki uning bevosita maqsadi yangi-yangi informatsiyalar, harakatlar va ish-harakatlari shakllarini oʻzgartirishdan iboratdir. Subʼektning oʻz maqsadi oʻrganishdan iborat boʻlgan mana shunday maxsus faoliyat taʼlim jarayonidir.

II. bob Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik o'sishida o'yinning ahamiyati.

2.1. “Minora quramiz “o'yinini olib borish

Agar sizda turli o'lchamda kubiklar bo'lsa bolalar bilan quyidagi o'yinni o'ynang shunday qilingki bola o'zi qurayotgan minorasi mustahkam pishiq bo'lishi uchun paski g'shti yirik bo'lishi shartligini tushunisin minora balandlashgan sari g'ishtchalari ham maydalashib borishi lozimligini anglagan bola o'z minorasini aynan shunday quradi.Unga minora qurish jarayonida har safar g'ishtchalarning eng yirigini olishni o'rgating.Ularni taqqoslash uchun bir-biriga qo'yib ko'rish kerak.Minorani haqiqiy gishtcha-kubiklardan qurib bo'lgach,karton g'ishtlardan ham shu tartibda yasashga o'tish mumkun.Agar bolaga qo'g'irchoq berib,u minoragacha yoki zinapoyaga qanday qilib ko'tarila olishni ko'rsatsangiz,bolaning qiziqishini yanada ortirgan bo'lasiz.Shuningdek.bola shakllarini ketma-ketjoylashtirish mohiyatini ham anglab oladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasiga borib o'rta guruh bolalariga **“Minora quramiz”** o'yinini o'ynatdim bolalar bu o'yin orqali ularning qiziqishlari juda ham ortdi.Bu o'yinda 8-ta bola o'ynashdi va o'yinda ular bir-birlariga nisbatan tezlik bilan bajarishga harakat qildilar.Keyin ular qurib bo'lgan minoralarga qo'llariga o'yinchoqlar olib kim tez olib borish o'yinni ham o'ynashdi.Ular bu o'yin orqali ham mehnat faoliyatini o'rganishadi, ham xotirasini mustahkamlashadi va ziyraklilik, tezkorlik hamda ilg'or harakatlilik hislatlarini o'zida mujassamlashadi.

2.2 “Kamalakrang pufaklar” o`yini.

Bolalar narsalarning rangiga e'tibor qilishni o'rganishlari uchun bir xil rangli narsalarni ajratishga o'rgatish maqsadida shu o'yinni taklif etish foydalidir. Buning uchun qalin qog'ozga 6-7 ta rangli tasmalarni yopishtirib qo'yish va rangli qog'ozdan doirachalar qirqib tayyorlash lozim. Tasmalar-ip, doirachalar – pufak bo'ladi. Bolaga pufaklarni ipga bog'lashni taklif eting, buni qanday qilish lozimligini ko'rsatib bering. Shundan so'ng, mustaqil ishlashlariga sharoit yaratish mumkin, faqat xatoga yo'l qo'ygan hollardagina yordamlashib turasiz.

Bolalar “**Kamalakrang pufaklar**” o'yini orqali turli ranglarni ajratishni o'rganishadi va ularni farqlashni anglashadi. Bu o'yin orqali bolalar tasavvur qilish qobiliyatlarini shakllantiradilar hamda estetik jihatdan ranglarni joy-joyiga qo'yishni farqlashadi. Shuning uchun bu o'yinni bajartirishga harakat qildim.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarning etakchi faoliyati bu o'yindir. Bogcha yoshidagi bolalarning o'yin faoliyatlari masalasi asrlar davomida juda ko'p olimlarning diqqatini uziga jalb qilib kelmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalar uzlarining o'yin faoliyatlarida ildam qadamlar bilan olg'a qarab borayotgan sermazmun xayotimizning hamma tomonlarini aks ettirishga intiladilar.

Ma'lumki, bolaning yoshi ulgayib mustakil xarakat kilish imkoniyati oshgan sari uning atrofdagi narsa va xodisalar buyicha dunyokarashi kengayib boradi. Bogcha yoshidagi bola atrofidagi narsalar dunyosini bilish jarayonida shu narsalar bilan bevosita amaliy munosobatga bulishiga intiladi. Bola bilishga tashnaligidan atrofdagi uzining xaddi sigadigan narsalari bilangina emas, balki kattalar uchun mansub bulgan uzining kuchi xam etmayligan, xaddi sigmaydigan narsalar bilan xam amaliy munosobatda bulishga intiladi. Birok tabiiyki bola uzidagi bunday extiyojlarning birontasini ham haqiqiy yo'l bilan qondira olmaydi. Bolalarning tobora ortib borayotgan turli extiyojlari bilan ularning tor imkoniyatlari urtasidagi qarama - qarshilik yuzaga keladi.

Buni shu bilan izoxlab berish mumkinki, birinchidan, bolalarning o'yin faoliyati kandaydir moddiy maxsulot ishlab chikarishga karatilgan faoliyat emas. SHuning uchun bolalarni o'yinga undovchi sabab(motiv) kelib chikadigan natija bilan emas balki shu o'yin jarayonidagi turli xarakatlarning mazmuni bilan boglikdir.

Ikkinchidan esa, bolalar o'yin jarayonida uz ixtiyorlaridagi narsalarni, uzlarini qiziqtirgan, ammo kattalargagina mansub bulgan narsalarga aylantirib xohlaganlaricha erkin faoliyatda bo'ladilar. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jixatdan garmonik ravishda rivojlantirish uchun birdan bir vositadir. O'yin bolalar hayotida shunday ko'p qirrali faoliyatki, unda kattalarga mansub bulgan mehnat ham, turli narsalar xakida tafakkur kilish, xom xayol, dam olish va xushchakchaklik manbalari xam mujjasamlangandir, ya'ni mana shu jarayonlarning barchasi o'yin faoliyatida anik buladi. SHuni ham ta'kidlab o'tish kerakki o'yin faqat tashki muhitdagi narsa xodisalarni bilish vositasigina emas,

balki qudratli tarbiya vositasi hamdir. Ijodiy va syujetli o'yinlarda bolalarning barcha psixik jarayonlari bilan birgalikda ularning individual xislatlari xam shakllanadi. Demak, bogchadagi ta'lim tarbiya ishlarining muvaffakiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maksadga muvofik tashkil qila borishga bog'likdir.

SHunday kilib, o'yin bolalar xayoli tomonidan yaratilgan narsa emas, aksincha bolalar xayolining o'zi o'yin jarayonida yuzaga kelib rivojlanadigan narsadir.

Bolalarning o'yin faoliyatlarida har xil xayoliy va afsonaviy obrazlarni yaratishlaridan shunday xulosa chikarish mumkin: odamning (shu jumladan bolalarning xam) tashki muxitdagi narsa va xodisalarni aks ettirish jarayonlari passiv jarayon emas, balki faol xamda ijodiy yaratuvchan, uzgartiruvchan jarayondir.

Buni shunday tushunish kerakki, bola uzining turli-tuman o'yinlarida fakat uziga tanish bulgan yolgiz bir shofyorning, vrachning, militsionerning, tarbiyachining, uchuvchining xatti-xarakatlarigina emas, balki umuman shofyorlarning, vrachlarning, tarbiyachilarning hamda uchuvchilarning xatti-xarakatlarini aks ettiradi.

Tavsiyalar

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagilarni tavsiya qilamiz.

- 1) O'yin jarayonidagi bolalar faol faoliyatining psixik taraqqiyot uchun ahamiyati shundaki, bolalarning turli sifat va fazilatlari o'yin jarayonida faqat namoyon bo'libgina qolmasdan, bunda sifat va fazilatlar mustahkamlanishini anglash hamda turli o'yinlar tashkil qilish lozim.
- 2) O'yinning ahamiyati bola shaxsining o'sib kamolotga etishiga ta'sir ko'rsatishda muhimligini anglash.
- 3) Maktabgacha tarbiya muassasasidagi ta'lim tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan bolalarning o'yin faoliyatlarini maqsadga muvofiq tashkil qila borishga bog'liqdir.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiy yo'li. Toshkent, 1992 yil
2. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. Toshkent, 2000 yil.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” T., 1996 yil
4. Karimov.I.A. «Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori».T., SHarq. 1997.
5. Karimov I.A. “YUksak ma'naviyat engilmas kuch” – Ma'naviyat.- T., 2008 yil
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'limi to'g'risida»gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. «Ma'rifat» gazetasi. T., 1997 yil 1 oktyabr
7. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limga qo'yilgan Davlat talablari. T., O'z PFITI, Tuzuvchilar Rasulova.M, Abduraxmonova.X 2000 y.
8. «Uchinchi mingyillikning bolasi». tayanch dasturi va ukuv kullanmasi. Tuzuvchilar: M.Rasuleva, S.Mirdjalilova va boshkalar. “Ma'rifat-madadkor”T., 2000 y.
9. «Uchinchi mingyillikning bolasi». tayanch dasturi va ukuv kullanmasi uchun badiiy tuplam. Tuzuvchilar: D.Koraboeva, Z.Ibroximova va boshkalar. “Ma'rifat-madadkor”T., 2002 y.
10. «Bolajon» tayanch dasturi, Tuzuvchilar: S.Mirdjalilova, M.Rasuleva va boshkalar. “Ma'rifat-madadkor”T., 2010 y.
11. Voxidov M.. «Bolalar psixologiyasi» Toshkent. 1992 y.
12. Vohidov M.V. Maktabgacha tarbiya psixologiyasi. T., “O'qituvchi”,1994
13. Davletshin M.G. va boshqalar. YOsh davrlari va pedagogik texnologiya. T., 2004
14. G'aybullaeva M., D.Gaybullaeva, Bir yoshdan uch yoshgacha bulgan bolalar tarbiyasi, T., Ilm-ziyo nashriyoti, 2006 yil.
15. Ivanov P.I., Zuffarova M.E. Umumiy psixologiya., T., 2008 yil

16. Ibragimov X., U.Yuldoshev Pedagogik psixologiya, Uzbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, T., 2009 yil.
17. Kalyushen G., M.Deyugina «Yo‘rgakdan maktabgacha» 1996 y.
18. Krutetskiy V.A. Pedagogik psixologiya asoslari. T., “O‘qituvchi”, 1996
19. Leventuev P., A.Askarxujaev, B.CHudnovskiy, M.Voxidov «Bolalar psixologiyasi ocherklari».
20. Loginova V.I., P.G.Samorukoalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» . «Tarbiyachi» T., 1991 y.
21. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va o‘qitish metodikasi. T., 2007 y.
22. Nishonova Z.T. «Bolalar psixologiyasi» ukuv kulanma. – T., 2006 y.
23. Norbosheva M. Bolalar Psixologiyasi. T., 2002 yil
24. Raximova N."Kuyla, oftobim". Toshkent 2006 yil
25. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta’lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.
26. YUsupova P. «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi» «Tarbiyachi» T- 1993y.
27. "O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini modernizatsiyalash-yuksak ma’naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent - 2009 yil.
28. SHerbakov A.I. YOsh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991
29. G‘aybullaeva M., D.Gaybullaeva, Bir yoshdan uch yoshgacha bulgan bolalar tarbiyasi, T., Ilm-ziyo nashriyoti, 2006 yil.
30. G‘aybullaeva M., "Farzandlarimizni allalab. erkalab o‘stiramiz". T., 2006 yil
31. G‘oziev E. Psixologiya. T., “O‘qituvchi”, 1994
32. www.Ziyo.net